



Talabalarda bilim va ko'nikma, malakalarini hosil qilishda kommunikativ boshqaruv kompetensiyalari nima uchun muhim. Avvalo, guruhni samarali boshqarish, o'qituvchilar ish faoliyatida har bir talabani o'ziga xos individual ehtiyojlari, o'quv uslublari va xulq-atvoriga ega bo'lgan turli xil talabalar guruhlarini uchratadilar. O'qituvchilar samarali o'quv muhitini yarata olishlari, intizomni saqlashlari va talabalarga motivatsiya berishi kerak. Bunda o'qituvchiga eng ma'qul keladigani kommunikativ boshqaruv qobiliyatini misol keltirsak mubolag'a bo'lmaydi. Muloqot ko'nikmalari o'qituvchilarga o'z talabalarining ehtiyojlarini yaxshiroq tushunishga va ular bilan o'rganishni rag'batlantiradigan darajada o'zaro aloqada bo'lishiga yordam beradi.

Respublikamizda ta'lim tizimi bo'yicha amalga oshirilayotgan bir qator islohotlar o'quvchi va talabalarni aqlan rivojlangan va kelajakda o'z kasbining yetuk mutaxassisi bo'lib yetishishiga xizmat qilmoqda. Shu jumladan, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida ustuvor vazifalar belgilab berilgan. Oxirgi uch-to'rt yilda O'zbekiston Respublikasining ta'lim tizimida juda katta ijodiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Bu o'zgarishlar shaxsan davlat rahbarining sa'y-harakatlari asosida olib borilmoqda. Natijada bir qancha me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, pirovard natijada talim tizimi bir qator isloh qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevral "Pedagogik ta'lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi PQ-4623-sonli qarori. 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli "O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risidagi" farmoni. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 8-oktyabrdagi F-4724-son farmoyishi bilan tashkil qilingan ishchi guruh tomonidan oliy ta'lim tizimidagi holatni o'rganish natijalariga ko'ra, bir qator oliy ta'lim muassasalarida hali ham ilmiy-pedagogik salohiyatning pastligi, ta'lim jarayonlarini axborot-uslubiy va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash zamonaviy talablarga javob bermasligi, ularning moddiy-texnika bazasini tizimli yangilashga ehtiyoj mavjudligi aniqlagan bu kabi aniqlangan kamchiliklarni bartaraf qilish kelajakda ta'lim tizimida yangidan yangi yutuqlarga erishishimizda bizga asos bo'la oladi. Respublikamiz Prezidenti tomonidan chiqarilayotgan qarorlar, farmonlar, shuningdek Vazirlar Mahkamasi tomonidan ishlab chiqarilayotgan qarorlar mavzuning dolzarbligini belgilab beradi

Adabiyotlar sharhi shuni ko'rsatadiki talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda kommunikativ boshqaruv masalalari Respublikamizda B.S.Abdullaeva, A.A.Abduqodirov, G.Abduraimova, Sh.Abduraimov, B.R.Adizov, N.N.Azizxodjaeva, S.Bazarova, U.Sh.Begimqulov, R.H.Djuraev, R.G.Isyanov, Sh.Q.Mardonov, A.Maxmudov, D.Mamatov, N.A.Muslimov, O.Musurmonova,



U.N.Nishonaliev, S.Nishonovalar tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlaridan ko'rishimiz mumkin.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari tadqiqotchilari L.S.Vigotskiy, P.Ya.Galperin, V.V.Davidov, N.V.Kuzmina, Ye.N.Linov, I.Ya.Lerner, A.K.Markova, N.D.Nikandrov, S.L.Rubinshteynlar tomonidan o'qituvchi kasbiy qobiliyatlarini rivojlantirishning psixologik jihatlarini o'rganilgan.

Yevropa mamlakatlarida o'qituvchilar kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari M.Buber, L.Botcheva, R.Boyatzis, F.Delamare, A.Disterveg, J.Dyui, A.Maslou, Jan Piaje, K.Yasperslar tomonidan tadqiq etilgan.

Hozirgi vaqtda tadqiqotchilar o'qituvchining kasbiy ish-faoliyatidagi turli xil boshqaruv aspektlarini tadqiqot jarayonida, yani talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirishda o'qituvchining ro'li (Y.V.Vasilev, I.B.Sennovskiy, V.P.Simonov, V.A.Slastenin va boshqalar); o'qituvchining kommunikativ boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirishning ijtimoiy pedagogik shartlari (V.A.Kann-Kalik, F.Marek, O.N.Mezina, M.A.Rubin va boshqalar); o'qituvchining boshqaruv kompetenti va madaniyati (O.S.Avgustimova, L.D.Andreeva, M.A.Konnenko va boshqalar) tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot ishlarida o'z ifodasini yaqqol namoyon qiladi.

Birqancha tadqiqotchilar (I.V.Surkina, G.O.Roshina v.k) bo'lajak o'qituvchilarning boshqaruvchilik, rejalashtiruvchilik, boshqaruvchilik, qobiliyatlari bo'yicha tadqiqot ishlarini olib borishga qiziqish bildirmoqda. Ko'rib chiqilayotgan muammoning turli jihatlarini o'qituvchining menejer sifatidagi munosabatlarining psixotexnologiyalari doirasida ko'rib chiqiladi.

Shuningdek T.M.Batarovaning tadqiqotida o'qituvchi faoliyatida kommunikativ boshqaruvning roli sinfdagi pedagogik jarayonni sifatli tashkillashtirishning omili deb hisoblasa R.L.Titskaya va boshqalar kommunikativ boshqaruvni o'qituvchining kasbiy tayyorgarligining bir qismi sifatida qarashni ta'kidlaydi.

Hozirgi davr o'quvchilari o'rta maktab darajasidan boshlab "biz nima uchun u yoki bu fanni o'rganishimiz kerak?" degan degan fikrlar paydo bo'lishi mumkin. Barcha fanlardan yaxshi baholar va o'qishning barcha sohalarida kerakli faollikni ko'rsatish talabalar orasida tez-tez uchramaydi. Kelajakda, olingan bilim va ko'nikmalarning rejalashtirilgan faoliyat sohasi uchun ahamiyati juda muhimdir.

Bu borada, o'qituvchi o'zini integrator sifatida ko'rsatishi kerak. Bu talabalarning potensiyali qiziqishini uyg'otadi, fan bo'yicha bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi, shu bilan bir qatorda bozor iqtisodiyoti haqidagi bilimlar bilan, boshqaruv pozitsiyalari va aspektlarini o'z fani bilan bog'langan holda yangi bilimlarni o'zlashtirishga imkon beradi.

Ushbu vazifalar yuqorida keltilgan muammolarning yechimi hozirgi bosqichda oliy kasbiy ta'limning asosiy maqsadiga erishishga imkon beradi. Shunday qilib,

muhim nazariy va amaliy mashg'ulotlar kelajakdagi mutaxassis uchun tegishli malaka darajasini ta'minlaydi; boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantirishga va kasbiy o'sishiga yordam beradi.

Talabalarining bilim ko'nikma va malakalarini shakllantirishda kommunikativ boshqaruvning zaruratiga asoslangan paradigma doirasida bo'lajak o'qituvchilarni har tomonlama yetuk qilib tayyorlash dolzarb muammo ekanligi shubha tug'dirmaydi. Shu o'rinda paradigma so'ziga qisqacha tushuncha berib o'tadigan bo'lsak:

Paradigma (grekcha — “namuna, andoza”) — ilmiy yutuqlar majmui. Paradigma u yoki bu davrda ilmiy hamjamiyat tomonidan tan olingan va yangi ilmiy tadqiqot uchun namuna asos bo'lib xizmat qilishi zarur. Mazkur tushunchani ilmiy muomalaga keng yoyilishida Amerikalik tarixchi Tomas Kunning “Ilmiy inqiloblar strukturasi” asari asosiy o'rinni egallaydi. Tomas Kunning fikricha, paradigma ilmiy jamoatchilik birligini ta'minlaydi. Ilmiy izlanishlar natijasida, universal qonunlarni aniq hodisalarga tatbiq etish asosida fan rivojlanadi. Umuman olganda, paradigmani ilmiy tan olingan va qaysidir davrda ilmiy tadqiqot uchun yo'naltirilgan bir yoki bir nechta fundamental yig'indisi, deb ta'riflash mumkin. Shu boisdan ham ilmiy paradigma vositasida ilmiy muammolar o'rta tashlanadi va uni yechish modeli namoyon bo'ladi.

Kasbiy kompetensiyaning umumiy tushunchasi mehnat bozorida raqobat bardoshligi, ish beruvchining talablariga javob berish va muayyan harakatlarni sifatli bajarishga tayyorgarlik nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi.

Shu ma'noda o'qituvchining boshqaruv kompetensiyasi turli xil xususiyatlarga ega. O'qituvchining kasbiy kompetentligi pedagogik tajribalardan, o'z-o'zi rivojlantirish uchun yuqori motivatsiya va quyidagi sohalarini o'z ichiga olgan keng ko'lamli kompetensiyalardan iborat:

dars jarayonida talabalarda bilim va ko'nikmalarni shakllantirishda:

- o'rganilayotgan fanning mavzusi va uning mazmunini hisobga olgan holda.

Masalan o'qituvchi darsdan oldin dars jarayoniga tayyorlanadi va o'sha tayyorlanish jarayonida mavzuning mohiyati va unda talabalarga berilishi kerak bo'lgan ma'lumotlarning mazmunini shular bilan bir qatorda aynan o'sha dars jarayonida talabalar bilan bo'lajak munosabatni modellashtira olishi kerak. Shuni alohida ta'kidlash lozimki bu munosabatda bo'ladigan sinf jamoasi xususiyatlarini oldindan bilishi kerak.

- fanni o'qitish, uning mazmunini shakllantirish va uslubiy ta'minlash bo'yicha tavsiyalar;
- umumiy ta'lim (fanlar-aro meta-ta'lim);
- pedagogik muhitda kommunikativ aloqa;



- pedagogik boshqaruv (oquv jarayoni, oquv faoliyati, o‘z-o‘zini rivojlantirish, ta’lim muassasasi, xodimlar va boshqalar);
- o‘qituvchining ijodiy ishlari va takliflardan tarkib topgan innovatsion texnologiyalar bilan o‘qitish metodikasi, bunda o‘qituvchi talabalarda bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda qo‘yiladigan talab va tavsiyalardan kelib chiqqan holda o‘quv jarayonini zamonaviy va samarali tashkil etish maqsadida quyidagi innovatsion texnologiyalardan foydalanish ko‘zda tutiladi.
- Kompyuter axborot texnologiyalari
- Modulli texnologiya
- Keys study o‘qitish texnologiyasi
- Interfaol usulli texnologiya
- Muammoli texnologiya
- Pedagogik o‘yinlar texnologiyasi.

Yuqorida keltirib o‘tilgan texnologiyalarni qo‘llash orqali ko‘zlagan maqsadga erishishning samaradorligi yana ortadi va jadallashgan ilmiy-texnik taraqqiyot talablariga javob beradi. Shuningdek, talabalarga bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda o‘qituvchi bevosita samimiy va hamjihatlikka asoslangan munosabat o‘rnatishi, munosabatda ustunlikka ega bo‘lib uni demokratik talablar asosida oqilona boshqarishi lozim va eng asosiysi o‘sha munosabat jarayonidagi ijobiy va salbiy jihatlarni uzluksiz tahlil etib borishi kerak.

O‘qituvchining kommunikativ boshqaruv qobiliyatining mazmuni keng ma’nomalarni bildiradi. O‘qituvchi faoliyatidagi kasbiy kompetensiyaning ajralmas qismi sifatida kommunikativ boshqaruv qobiliyatini rivojlantirish zarurligini aniq belgilaydi. Shundan kelib chiqqan holda talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda kommunikativ boshqaruvning oladigan o‘rni nihoyatda muhim ekanligini aniqlanadi.

Yangi huquqiy va iqtisodiy asosda olib borilayotgan o‘quv jarayonini modernizatsiya qilishning zamonaviy sharoitida talabalarda bilim va ko‘nikmalarni hosil qilishda va boshqaruv qobiliyatini shakllantirishda nazariy va amaliy jihatlarni batafsil ko‘rib chiqish, har tomonlama o‘rganish kerak ekanligi izohlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki:

- yangi ta’lim standartlari tarkibida talabalar o‘rtasida ommabop ta’lim harakatlarini shakllantirish uchun boshqaruv komponentini kuchaytirish va o‘qituvchining kommunikativ boshqaruv qobiliyatining zarurati;
- o‘qituvchilarning yuqori darajadagi boshqaruv kompetensiyasida ishlab chiqilgan o‘qituvchi-menejerlarning ehtiyojlari va kompetensiyaning mazmuni to‘g‘risidagi o‘qituvchilarning subyektiv g‘oyalari orasidagi bog‘liqlikni ta’minlaydi;

- o‘qituvchining kommunikativ boshqaruv qobiliyatlarini shakllantirishning zarurati va ushbu muammoni ilmiy ko‘rib chiqishning yetarli emasligi o‘rtasida qarama-qarshiliklar mavjudligi aniqlanadi.

Tadqiqot natijasi sifatida ta’kidlashimiz mumkinki, dars jarayonida kommunikativ boshqaruvning ahamiyati va uning talabalarda bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishdagi zarurati har tomonlama o‘rganilishi bugungi kundagi eng muhim masalalardan biri ekanligini anglatadi.

Talabalarda bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishda nazariy bilimlar singari olgan bilimlarini amalda qo‘llash ham shunchalik muhimdir. Bu jarayonni amalga oshirishda darsdan tashqari to‘garaklar misolida ko‘rsak bo‘ladi. Masalan: talabalar darsdan tashqari adabiyot darslarida o‘qigan asarlaridagi epizodlarni sahnalashtirish orqali nazariy olgan bilimlarini amaliy, o‘zlari qatnashgan holda ko‘radi va o‘sha o‘qitilayotgan asarning mohiyatini tushunishga yanada yordam beradi. Shu bilan bir qatorda dars jarayonida o‘qigan she’riy to‘plamlarini to‘garak jarayonida sherning faqat ma’no-mohiyatini emas balki o‘sha sherning yozilishiga nima sabab bo‘ldi? bu sherda qanday g‘oya ilgari surilgan? Shoyirning aynan shu masalini ko‘tarishining sababi nimada? degan savollarni quyidagi “uch qadam” metodi orqali ko‘rib o‘tishimiz mumkin: (1-jadvalga qarang)

1-qadam	2-qadam	3-qadam
<i>Sherda qanday g‘oya ilgari surilgan?</i>	<i>Bugungi kunda bu mavzuning dolzarbligi nimada?</i>	<i>Shoyirning aynan shu masalini ko‘tarishining sababi nimada?</i>
Millat va til taqdiri. Shoir millatning ona tili, uning yarador ruhini davolaydi degan ideyani ilgari surgan holda, kelajak avar yoshlarini yo‘qolib borayotgan Avar tilini saqlab qolish va uni ulug‘lashga chaqiradi.	Ona tiliga bo‘lgan hurmat, e’tibor xar bir xalq va millatning nafaqat bugungi balki ertangi kunining istiqboli uchun juda muhim va dolzarbdir. Chunki til bor ekanki-millat barhayot. Shu o‘rinda bir jumla ta’kidlash darkor “Bir millatni yo‘q qilish uchun uning tilini yoq qilishning o‘zi kifoyadir”. Har bir millatning, xalqning o‘tgan kuni, buguni va kelajagini, uning dunyoda mavjudligini birgina omil – ona tili bildirib turadi.	-Ona tiliga, xalqiga bo‘lgan cheksiz hurmat va muhabbat. -Ona tili yo‘qolib borayotganining oldini olish.

Bu metodni foydalanish orqali, talabalar, birinchidan sherning asosiy g‘oyasini aniqlaydi, ikkinchidan masalaning dolzarbligini asoslaydi, uchinchidan o‘sha sherdagi masalaning ko‘tarilish sababini anglab yetadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan uslublar orqali talabalarni nafaqat o‘qitishadi balki fikrlash qobiliyatiniyam shakllantiradilar.



Xulosa o‘rnida ta’kidlashimiz mumkinki: Talabalarda bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirishda kommunikativ boshqaruv kompetensiyasini rivojlantirish muammosini har tomonlama ko‘rib chiqish bugungi kunning dolzarb muammolari qatoridan o‘rin olmoqda.

Chunki, bugungi kundagi talabalarga ta’lim berayotgan zamonaviy oliy ta’lim muassasalari, kelajakdagi oliy ta’lim o‘qituvchilari uchun yangi bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish imkoniyatini bermoqda. Ular nafaqat talabalarni o‘qitishadi, balki dars jarayonini rejalashtirish, boshqarish, ta’lim sifatini baholash, shuningdek ilmiy faoliyat bilan ham shug‘ullanadilar. Bularning barchasi ulardan yuqori kommunikativ va boshqaruv kompetensiyalarini talab qiladi. Kommunikativ boshqaruv qobiliyatining rivojlanishi oliy ta’lim o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligining muhim elementi hisoblanadi. Ushbu ko‘nikmalar ularga o‘quv jarayonlarini samarali boshqarishga, talabalarning sifatli ta’lim olishiga va ularda bilim va ko‘nikmalarni shakllantirishga hissa qo‘shadi va zamonaviy oliy ta’limning rivojlanishiga va raqobatbardosh bo‘lishiga o‘z hissasini qo‘shadi.

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 27-fevral « Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari» to‘g‘risidagi PQ-4623-sonli qarori // <https://lex.uz/docs/5085887>
2. 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli «O‘zbekiston Respublikasi ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi» Farmoni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi. 06/19/5712/3034-son, 29.04.2019 y.
3. J.E.Usarov, L.G.Babaxodjayeva, G.N.Sharipova, N.J.Eshanev. Pedagogik kompetentlik. -Toshkent «Malik print co», 2021.
4. Qaldibekova A.S. Umumiy pedagogika. -Toshkent, 2019.
5. Батарова Т.М. Профессиональная подготовка будущего учителя к управленческому общению. - Тольятти, 1998. – 78 с
6. Тицкая Л.Р. Управленческий компонент профессиональной подготовки в системе высшего педагогического образования: автореферат дис. кандидата педагогических наук. - Москва, 1998.
7. Бержекова Е.В., Краевский В.В. Парадигма науки и тенденции развития образования// Педагогика. -М., 2007. -№1. -С.22-28.

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada ta’limning rivojlanishi va talabalarning ta’lim jarayonidagi vazifasi, ta’lim jarayonini boshqarish ilmiy metodik tomonlama rivojlanish va talabalarning kelgusi faoliyatida samarali muloqot ko‘nikmalarini shakllantirish haqida fikrlar bayon etilgan.

РЕЗЮМЕ

В данной статье изложены идеи о развитии образования и задачах студентов в образовательном процессе, научно-методическом развитии управления образовательным процессом и формировании эффективных коммуникативных навыков в дальнейшей деятельности студентов.

SUMMARY

This article presents ideas about the development of education and the tasks of students in the educational process, the scientific and methodological development of educational process management and the formation of effective communication skills in the further activities of students.